

OILAVIY AJRIMLARNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Toshkent amaliy fanlar Universiteti "Psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi
G'afforov Izzat Sanjar o'g'li
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annontatsiya: Ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, ajralish natijasida millionlab odamlar-birinchi navbatda bolalar, ayollar, erkaklar va hatto ajralishlarning yaqinlari ham "ma'naviy farovonlik" oladilar. Insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, odamlarning kundalik hayoti kundankunga urbanizatsiyalashgan bir vaqtning o'zida ilmiy-texnik taraqqiyotning keng doirasi kengayib borayotgan bir vaqtda, onalar kasalliklari, bolalar o'limi, zaif, nogiron bolalarning tug'ilish darajasi, onaning yomonlashuvi va oilaviy hayotda har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, oila qurishga qodir., ularga oilada bolalar tug'ilishi va shularga bog'liq masalalar haqida ilmiy asoslangan bilimlarni o'z vaqtida va yuqori darajada berish talab etiladi. Umuman olganda, bu masala kecha yoki bugun yuzaga kelgan muammo emas. Insoniyat tarixi, nikoh-oila munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq ko'hna muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: Ziddiyat, farzandlar tarbiyasi, transformatsiya, tendensiya, jamoatchilik, stress, dolzarb muammolar, nikoh, liberallashuv, ichki va tashqi omillar, farzand ko'rish, ishsizlik, infilatsiya, makroiqtisodiy, xavf-xatarlar, nogironlik, zaiflik, fojia, ko'hna muammolar.

«Ilgari bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan maqolga amal qilib yashardik. O'g'il-qizlarimizning axloq-odobi, o'qishi uchun nafaqat ularning ota-onalari, avvalo mahalladagi nuroniylar, kayvoni keksalar, ziyolilar ham o'zini mas'ul va javobgar deb bilardi. Shuning uchun ham mahallalarimizda urush-janjal, bezorilik, ichkilikbozlik qilib yuradigan yoshlar, oilaviy ajrimlar kam bo'lar edi. Ajrim bizga yot edi. Shunday mahallalar bor ediki, nuroniyning bir og'iz gapi bilan hamma narsa hal bo'lar edi. Lekin hozir yengil-yelpi hayotga o'tib oldik. Mana, ajrimlarning statistikasini ko'ringlar. Bu nima degan gap? Qayoqqa boryapmiz?» – ta'kidladi u.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, barqaror oila aholi turmush farovonligining oshishi, xususan, iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy ajrimlar esa, aksincha, farzandlar tarbiyasi, oila a'zolari hayoti sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va xavf-xatarlarga sabab bo'ladi. Ajrashishlarning mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga tahdid solishini e'tiborga olgan holda, ko'plab olimlar ajrashish xavfini orttiruvchi omillarni tadqiq

etishga kirishgan. Oila transformatsiyasi jarayonidagi tarixiy tendensiyalarni kuzatar ekanmiz, jamiyat liberallashtirish va sanoatlashuvining dastlabki bosqichlarida oilaviy ajrimlarning soni ortib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu bilan birgalikda, ba'zi olimlar "taraqqiyot ma'lum nuqtaga yetgach, nikoh barqarorligi tiklanadi", degan g'oyani ilgari surishadi. Ma'lumki, oilaviy ajrim sabablari har bir mamlakatning geografik joylashuvi, madaniyati, urf-odati, dini, axloqi hamda aholining bilim va qashshoqlik darajasi, shuningdek, turli iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, ichki va tashqi stress kabi omillar ta'sir qiladi. So'nggi yarim asr davomida oila tuzilishining transformatsiyasi, oila barqarorligiga turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini tadqiq etishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ba'zi tadqiqotlar inflyatsiya va ishsizlik kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ajrashishga ta'sirini o'rgangan bo'lsa, boshqalari ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va boshqa ijtimoiy omillarning ta'sirini baholagan. Turmush qurish va oilaviy ajrimlarning sabablarini iqtisodiy nuqtayi nazardan birinchi bo'lib G. Bekker 1973-yilda tadqiq qilgan. G. Bekker, oilali va yolg'iz insonlarning daromadidagi tafovut ta'lim darajasi hamda jamiyatdagi ijtimoiy maqomi kabi noiqtisodiy jihatlarga bog'liq ekanini ta'kidlab o'tgan. Keyinroq Bekker va uning tarafdorlari hayotdagi kutilmagan hodisalar daromadga ta'sir qilish orqali ajrashish xavfini oshirishini asoslab bergan. Ayollarning daromadi va ish bilan bandligining ajrashishga ta'sirini keng o'rgangan Xoffman va Dunkanlar erkak kishi daromadi yuqoriroq bo'lgan oilalarda ajrimlarning kamligini, Oppenxeymer tamonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa ayollar mustaqilligi ortgan sari ajrashish xavfi ortishini aniqlagan. E'tiborga molik tadqiqotlarning yana biri Erondagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ajrashishga ta'siri o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotda Djini (GINI) indeksidan foydalangan holda, daromad taqsimoti sifatining yomonlashuvi natijasida ajrashishlar ko'payishi aniqlangan. Shuningdek, urbanizatsiya va uy xo'jaligi xarajatlari ortishi ajrashishlar sonining oshishiga, savodxonlik va jon boshiga daromadning ortishi esa oilaviy ajrimlarning kamayishiga sabab bo'lishi ilmiy asoslab berilgan. Farzand ko'rish oila qurishda ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir. Dastlab, olimlar oilada farzand borligi, ayniqsa, ularning kichik yoshda bo'lishi ajrashish ehtimolini kamaytiradi, degan fikrni ilgari surgan. Keyinroq aniqlanishicha, ikkinchi va undan keyingi farzandlar Italiya va Ispaniyada oilani mustahkamlasa, Daniyada ajrashish xavfini oshirgan. Demak, farzandlarning oila mustahkamligiga ta'siri jamiyatda shakllangan ma'naviy va madaniy qadriyatlarga qarab o'zgarishi mumkin. K. Trent va S. Soutx kabi olimlar 1989-yilda alohida omillarning ajrashishlarga ta'sirini chuqur tahlil qilishdi, buning natijasida dunyo bo'yicha ajrashishlar darajasidagi tafovut sabablari o'rganildi. Ushbu tadqiqot jarayonida 66 ta mamlakatdan tarkib topgan tanlanmadan foydalanib, ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi, nikoh yoshi, diniy qarashlari, er-xotin o'rtasida ajrashish qarorida jinslar nisbatining ahamiyatlilik darajasi aniqlandi. Yosh, davr va kogorta. 1980-yillarda olimlar oilaviy ajrimlarning vaqt (yosh davrlari) bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratishgan. Deyarli barcha tadqiqotlarda oila qurishdagi yosh oilaviy ajrimlarga kuchli ta'sir qilishi, turli yosh davrlariga tegishli insonlarda ham nikohga nisbatan umumiy qarashlar shakllanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, olimlar insonlarning ajrashish vaqtidagi yoshini ham tahlil qilish

muhimligini ta'kidlashgan, bunday yondashuv katta yoshdagi insonlarning nikohi yoshlarnikiga nisbatan mustahkamroq bo'lishi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda 2021 yilning birinchi choragida 9213 ta ajrim qayd etildi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, eng ko'p holat Toshkent shahrida, eng kam ko'rsatkich esa Qoraqalpog'istonda ro'yxatga olingan.

Davlat statistikasi qo'mitasi O'zbekistonda 2021 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan ajrim holatlariga oid ma'lumotlarni e'lon qildi. Eng ko'p Toshkent shahrida oilalarga darz ketgan bo'lsa, eng kam holat Qoraqalpog'istonda kuzatilgan.

Hududlar kesimida ajrimlar soni:

Toshkent shahri — 1331 ta;
Farg'ona viloyati — 999 ta;
Andijon viloyati — 995 ta;
Toshkent viloyati- 946 ta;
Samarqand viloyati- 912 ta;
Qashqadaryo viloyati — 711 ta;
Namangan viloyati- 682 ta;
Surxondaryo viloyati — 581 ta;
Buxoro viloyati — 500 ta;
Xorazm viloyati — 344 ta;
Jizzax viloyati — 337 ta;
Sirdaryo viloyati — 298 ta;
Navoiy viloyati — 289 ta;
Qoraqalpog'iston — 288 ta.

2022 yilning 1 iyun holatiga FHDY organlari tomonidan respublika bo'yicha 20 798 ta ajrim qayd etilgan. Adliya vazirligi xabariga ko'ra, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 4 700 taga ko'paygan.

Xususan, sudlarning tegishli qarorlariga asosan – 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida – 5 812 ta ajrim holati qayd etildi.

Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shaharda eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Bunda:

Samarqand viloyati – 368 ta;
Farg'ona viloyati – 793 ta;
Qashqadaryo viloyati – 368 ta;
Andijon viloyati – 800 ta;
Surxondaryo viloyati – 353 ta;
Namangan viloyati – 706 ta;
Toshkent viloyati – 693 ta;
Toshkent shahri – 732 ta;
Buxoro viloyati – 184 ta;
Jizzax viloyati – 248 ta;
Qoraqalpog'iston R. – 76 ta;

Xorazm viloyati – 176 ta;
Navoiy viloyati – 109 ta;
Sirdaryo viloyati – 206 ta ajrim kuzatildi.

O‘zbekistondagi ota yoki onasiz yashashga majbur bolalar soni 25 mingga ortdi
08.10.2023

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida mamlakatimizda 33 mingdan ortiq oila ajrashgan. Mamlakatdagi oilaviy ajrashishlar sabab, joriy yilning o‘tgan 8 oyida 25 ming nafarga yaqin bolalar ota yoki onaning to‘liq mehridan bebahra qolgan.

Xulosa: «Avvallari biror oila ajrashsa, mahallada duv-duv gap bo‘lardi, butun mahalla oyoqqa turardi. Ajrim — bu katta fojia», — degan edi prezident.

«Nikohdan o‘tib, so‘ng farzandini tirik yetim qilgandan ko‘ra, uch oylik muddatda bir-biriga ma‘qul kelmasa, o‘z yo‘lida davom etgani ma‘qul», — deyilgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 “Oilalarda ajralish va using oqibatlari” Azamova Kumush Salim qizi, Abduxalilov Abdulla.

2 “Oiladagi ajrimlar psixologik muammosi sifatida” Ismatova Dilafuz To‘ymurodovna,

3 “Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” Abdusamatov Xasanboy

Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
Psixologiya fanlari bo yicha falsafa doktori (PhD)

Foydalanilgan saytlar:

Kun.uz Daryo.uz Xabar.uz